

UZBEKISTAN
LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON
TIL VA MADANIYAT

**Tarjimashunoslik
va qiyosiy
adabiyotshunoslik**

2022 Vol. 1 (3)

www.uzltscls.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

TARJIMASHUNOSLIK VA
QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

TRANSLATION STUDIES AND
COMPARATIVE LITERARY
STADIES

2022 Vol. 1 (3)

www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Uzoq Jo'raqulov

Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotib:

Mahmadiyor Asadov

Tahrir hay'ati

Bahodir Xoliqov, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Murtazo Saydumarov, Aidaxon Bumatova, Komiljon Hamroyev.

Jurnal haqida ma'lumot

“Tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik” seriyasi – qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohalarini qamrab olgan O'zbekiston: til va madaniyat akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlctscls.@navoiy-uni.uz

Website: www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Shuhrat Sirojiddinov
Deputy editor-in chief:	Uzoq Jo'raqulov Ziyoda Teshaboyeva
Executive secretary:	Mahmadiyor Asadov

Editorial Board

Bahodir Kholikov, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Murtazo Saydumarov, Aidakhon Bumatova, Komiljon Hamroev.

About the Journal

Uzbekistan: Language and Culture. Translation Studies and Comparative Literary Studies series is an academic journal that publishes works in the field of comparative literary and translation studies.

The journal is published twice a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal publishes thesis and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.trans.compliterary.tsuull.uz

MUNDARIJA

Jahon adabiyoti va tipologik talqin

Maxliyo Umarova Sharq va G'arb badiyatida muallif va qahramon masalasi.....	7
Komiljon Hamroyev “Saddi Iskandariy” va “Hamlet” asarlarida “bilib qolish” tipologiyasi.....	14
Nilufar Jumayeva Uilyam Folkner asarlarida simvolizm belgilari	21
Fahriddin Yarmanov Bomarshening hayot va ijod yo'li	30

Epik janrlarni qiyosiy o'rganish

Elyor Murtazayev Nazar Eshonqul “Urush odamlari” asarida urush fojiasining badiiy ifodasi.....	37
Sardor Sherqulov O'tkir Hoshimov ijodining qiyosiy adabiyotshunoslikda o'rganilishi.....	42

Sharq va G'arb lirikasi muammolari

Tuychiyeva Oydin Moga Rahmoniyning “Pardaneshinone suxanguy” tazkirasida ijtimoiy tarixiy muhit va ayollar ijodi tavsifi.....	49
---	----

Tarjima va tarjimashunoslik

Kosimboy Ma'murov, Nargiza Tilakova Navoi's creativity: procedure of ghazal Translation (on the example of Alisher Navoi's ghazals)	62
Shafiqqa Yorqin O'zbek tarjimachiligi haqida	77
Ra'noxon Xudjayeva Frazeologik omonimlarning inglizcha-o'zbekcha tarjimasi talqini	88
Nargiza Rashidova O'zbek va turk tillarida din sohasiga oid ayrim mansab va unvon nomlari semantikasi	102
Nigora Sulaymonova Mahmud Zamaxshariyning «Asosu-l-balog'a» asarida she'riy parchalarning illyustrativ manba sifatida berilishi	110

Aidaxon Bumatova	
Poetik tarjima transformatsiyasi.....	118
Chorshami Hayitov	
Realiyalar tarjimasi muammolari.....	126
Zebiniso Bekmuradova	
Xiazm konstruksiyasi asosida qurilgan fransuz folklor matnlarining o'zbekcha tarjimalari.....	132
Ilhom Xolmo'minov	
Folklor asarlar tarjimasiga doir mulohazalar	137
Азиза Шералиева	
Перевод безэквивалентной лексики с английского на узбекский язык.....	142
Mahmadiyor Asadov	
“Kimsasiz odam” botin olamining badiiy-psixologik talqini.....	149
Yulduz Ziyayeva	
Sharq va G'arb badiyatida muallif va qahramon masalasi.....	155
Maftuna Norqulova	
“Oydin tunlar” va “Sunbulaning ilk shanbasi”da sentimental qahramon olami.....	160
Azamat Xayrullayev	
Sharq hikoyatlarida “tarbiya motivi”	164
Qutlovlar	
Uzoq Jo'raqulov	
Global adabiyot talqinchisi.....	167

“Oydin tunlar” va “Sunbulaning ilk shanbasi”da sentimental qahramon olami

Maftuna Norqulova¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Fyodor Dostoevskiy qalamiga mansub “Oydin tunlar” romani va Abduqayum Yo‘ldoshevning “Sunbulaning ilk shanbasi” qissalari tahlilga tortilgan. Har ikki roman sentimental qahramon ruhiyati nuqtai nazaridan qiyoslab o‘rganilgan. Shuningdek, sentimentalizm adabiy oqimiga xos xususiyatlar, ularning badiiy asardagi poetik talqini tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *sentimentalizm, qahramon, sayohat, his-tuyg‘u, intellekt, tushkunlik, tahlil, talqin.*

XVIII asr o‘rtalarida ingliz adabiy muhitida paydo bo‘lgan sentimentalizm oqimi inson qalbini, his-tuyg‘ularini markaziy o‘ringa olib chiqdi. Sentimentalistlar klassitsizm kanonlarini inkor qilib, insonda intellekt o‘rniga

his-tuyg‘uni ustun qo‘ydilar. Chunki klassitsizm adabiyoti insonning ichki his-tuyg‘usi, ichki dunyosini tasvirlashni maqsad qilmagan edi. Fikrimizni dalillash uchun adabiyotshunos Uzoq Jo‘raqulovning “Sentimentalizmning paydo bo‘lishi adabiy-tarixiy jihatidan klassitsizmdan keyingi bosqichni tashkil etadi. Bir tomondan voqelikni hissiy idroklash va badiiy talqinlashga bo‘lgan ehtiyoj, ikkinchi tomondan klassitsizmning qat‘iylashtirilgan qoliplaridan ozod bo‘lish ehtiyoji sentimentalizm adabiy oqimini maydonga keltirdi. Zotan, adabiyot o‘zining erksevarlik tabiatiga ko‘ra, uzoq vaqt qoliplar iskanjasida yashay olmas edi. Bu fikrni sentimental adabiyotning aksar vakillari dastlab klassitsizm yo‘nalishida ijod qilganlari, keyinchalik bu metoddan voz kechib sentimentalizmni tanlaganlari xususidagi dalillar ham to‘la isbotlaydi” – degan fikrini keltirish o‘rinli. Haqiqatdan ham, sentimentalistlar klassitsizm qoidalari, qoliplarini buzib insonda aql-idrok o‘rniga his-tuyg‘u markazga olib chiqish yo‘li bilan, inson hayotida, jamiyatda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkinligini ochib berishga intildilar. Adabiyotshunoslik lug‘atlarida sentimentalizmga ta‘rif berilar ekan, quyi tabaqa vakillarining hayoti va ichki dunyosiga ko‘proq e‘tibor qaratilganligi, his etish esa bu oqimning yutuq tomoni ekanligi qayd etiladi.

Sentimental qahramonda go‘zal ichki kechinmalar, his-tuyg‘ular tug‘yoniga yo‘g‘rilgan, goh junbushga keluvchi, goho o‘ta tushkunlikka,

¹ *Norqulova Maftuna G‘ayrat qizi* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi.

E-mail: maftunagayratovna@mail.ru

ORCID: 0000-0001-5308-1820

Ixtibos uchun: Norqulova, M. 2022. “Oydin tunlar” va “Sunbulaning ilk shanbasi”da sentimental qahramon olami. O‘zbekiston: til va madaniyat 1 (3): 160-163.

yig'loqilikka yuz tutuvchi hislar, ehtiroslar erkinligi, tabiat qo'yniga intilish, undan oziq olish, hayotdagi bir xillik va kishilarni chegaralovchi, tabaqalarga ajratuvchi har qanday qonun-qoidalarni inkor etish kabi holatlar kuzatiladi.

Sentimentalizm romantizm, realizm va naturalizm singari metod darajasiga ko'tarilmagan adabiy oqim hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda Fyodor Dostoevskiy qalamiga mansub "Oydin tunlar" va Abduqayum Yo'ldoshevning "Sunbulaning ilk shanbasi" asalarini sentimental badiiy talqin nuqtai nazaridan muqoyasa qilish ko'zda tutilgan.

"Oydin tunlar" va "Sunbulaning ilk shanbasi" asarlarida muallif tomonidan sentimental qahramonlarga ism qo'yilmagan. Bu ham ma'lum ma'noda sentimental adabiyotga xos xususiyat. Umuman, badiiy adabiyotda ismsizlik sentimentalizmdan romantizmga, romantizmdan modernizmga ko'chdi.

"Oydin tunlar" asarida sentimental qahramon Peterburgda yashay boshlaganiga sakkiz yil bo'lsa-da, birorta do'st, tanish orttirolmaydi. Lekin har kun ko'rib yurgan odamlari ham u uchun tanish. Peterburgliklar sekin-asta bog', hovlilarga ko'chib ketishganda u o'zini yolg'iz his qila boshlaydi, shahar kezadi, tanish chehralarni uchratmaydi, to'g'ri odamlar uni tanimasdi, lekin u odamlarni har kun ko'raverib, aft-basharalarini o'rganib olgandi. Qahramon jamiyatdagi, tabiatdagi hodisalarga ham befarq emas. "Oydin tunlar" asari qahramoni ham tanish chehralarga qaraganda, ular xursand bo'lishsa quvonadi, xafa bo'lishsa xomush bo'ladi, atrof-muhitni sinchiklab o'rganadi. Xayolan jonsiz predmet – uylar bilan tanishadi, ular bilan do'st bo'ladi, suhbatlashadi, dardlashadi. Bu jonsiz "do'stlar" orasida qahramon mehr qo'yganlari ham bor: "...pushtirang bir uy voqeasi hech esimdan chiqmaydi. U ko'rkamgina, g'ishtin uy edi, men yo'lim tushib qoshidan o'tayotganimda beo'xshov qo'shnilariga mag'rurlanib qarar, menga esa muruvvat bilan boqardi, bundan xursand bo'lardim. O'tgan hafta ko'chadan o'ta turib nogahon do'stinga qaradimu shikoyati qulog'imga chalindi: "Meni sariqqa bo'yashmoqchi!" Voy yaramaslar-ey, vahshiylar-ey. Rostdan hech narsani ayashmadi: kolonnalarni ham, karnizlarni ham bo'yashdi, oshnam xuddi kanareykaga o'xshab sarg'aydi-qoldi. Bunga o'tim yorilayozdi, xunugi chiqqan sho'rlik birodarimni ko'rishga hali ham yuragim betlamay yuribdi"¹. Qahramonimiz butun Peterburg bilan shu tarzda tanishadi.

"Sunbulaning ilk shanbasi" qissasida ham bosh qahramon "Al-misoqdan qolgan buyumlarga, derazaga, osmonga stolida uyulib yotgan qog'ozlarga tashnalik, ixlos bilan to'ymay tikilar, ba'zida derazaga qo'ngan pashsha ham uning uchun ajib bir his paydo qilardi: "Buni qarang-a, Aptiqayim aka (u mening ismimni sira to'g'ri talaffuz qilolmasdi), buni qarang-a!" deb o'zi mahliyo termulayotgan pashshagami, chivingami ishora qilaverar, mening miyig'imda iljaygancha: "Zo'r-a, zo'r-a!" degancha, dir-dir titrayotgan barmog'ini bizning tashvishlarimizdan bexabar holda o'zicha ming'illab uchib

¹ Достоевский Ф.М. Маъсума: Сайланма. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 157 б

yurgan bezabon jondorga niqtashini qo‘ymasdi”¹. Ammo jamiyat tomonidan bunday kimsalar qabul qilinmaydi, jamiyatdan begona qilinadi, jamiyatga qo‘shilmaydi. Kishilar tomonidan bunday kimsalarga nisbatan achinish yoxud mayna qilish holatlari kuzatiladi.

Sentimental qahramon intellektni, aql-idrokni inkor qilib, hayotida yuz bergan barcha voqealarga hissiy yondashadi, ular ko‘ngil kishisi, yurak hukmron bo‘lgan joyda, aql o‘z-o‘zidan chekinadi. “Oydin tunlar” asarida qahramon hayotida yuz bergan voqea-hodisalarga qalbi bilan sho‘ng‘ib ketishini kuzatamiz: “...bilasizmi men sizni shunaqayam yaxshi ko‘rardimki, shunaqayam yaxshi ko‘rardimki, agar o‘shani, menga notanish birovni hamon sevib yurganingizda ham mening ishqim sizga ortiqcha yuk bo‘lmasdi, siz hamisha qoshingizda bir yurak mehr bilan, fidoyilik bilan tepib turganini, bu qizg‘in yurak, ishqingiz bilan to‘la yurak har daqiqada siz uchun fido bo‘lishga tayyorligini his etib, ko‘rib, sezib turardingiz... Eh, Nastenka, Nastenka, nima qilib qo‘ydingiz meni!..”² Qahramon tilidan yuqoridagi samimiyat bilan aytilgan jummalarga e‘tibor qarataylik. U Nastenkani uchratgunga qadar hayoti faqat qora tunlardan iborat edi. Asar nomi ham “Oydin tunlar” deb nomlanishi bejiz emas. Nastenka hayotiga kirib kelgandan so‘ng uning tunlari oydinlashdi, tun bo‘lishini orziqib kutadigan, sevgilisi bilan yurgan ko‘chalarni, yo‘laklarni kezadigan bo‘ldi, hayotiga shodlik olib kirgan insonni tunu kun o‘ylaydigan bo‘ldi.

25 yoshgacha biror qiz bilan gaplashmagan, kun kelib xayolidagi insonni uchratdi, ko‘pdan beri uni izlardi, uni uchratganda dunyoda undan baxtiyor odam yo‘q edi: “Bor yo‘g‘i ikki minutgina vaqt o‘tdi-yu, meni bir umrga baxtiyor qildingiz”.

“Sunbulaning ilk shanbasi” qissasida ham sentimental qahramon bilan birga ishlagan hamxonasi uning o‘limidan so‘ng qo‘lyozmalaridan quyidagi dil izhorlarini o‘qiydi: “Ko‘z yoshidan sarg‘aygan ba‘zi sahifalarda hamxonam suyuklisini “farishtam, iloham” atab, shunchalar nafis, shunchalar muloyim, shunchalar haroratli so‘zlar ila erkalab, suyib, bosgan izlarini ko‘zga surib tavof etmoqqa hozirligini bildirib iltijolar etardiki, bu misralarni o‘qiyotib ichimga issiq bir nima qo‘yilganday entikib, to‘liqib ketdim”. Shunchalar muhabbatga to‘la bu qalb sohibining iztirobli, dardli misralaridan inson qalbi jo‘nbushga keladi.

Sentimental adabiyotning muhim xususiyatlaridan yana biri qahramon qalb, tuyg‘u kishisi sifatida tabiatga intiladi. Tabiatdan energiya oladi, Shahardan tashqariga chiqib, o‘zini baxtiyor his qiladi: “...ekinzor bilan o‘tloqlar o‘rtasidan keta boshladim, horg‘inligimga parvo ham qilmadim, lekin nazarimda yuragim allaqanday g‘ussalardan xalos bo‘la boshlagandek tuyuldi. ...Italiyaga borib qolgandekman – shahar devorlari orasida bo‘g‘ilayozgan kasalvand bir shaharlikni tabiat shunchalik maftun qilib qo‘ygandi”³. U

¹ Абдуқаюм Йўлдош. Сунбуланинг илк шанбаси. “Ёзувчи” нашриёти, 1998. – 4 б

² Достоевский Ф.М. Маъсума: Сайланма. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 196 б.

³ Достоевский Ф.М. Маъсума: Сайланма. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 159 б

Peterburg tabiatida ajib bir mo'jizakorlik, jozibadorlik borligidan, bahor kelishi bilan u birdan o'z qudratini namoyish qilishidan rohat tuyadi.

“Sunbulaning ilk shanbasi” qissasida qahramon suyuklisi bilan har yili sunbula oyining birinchi shanbasida ko'rishadigan joyini yaxshi ko'radi, yaxshi biladi. O'zi bemor bo'lsa-da, ahdida sodiq turish uchun, “Aptiqayim” akasidan uchrashuv belgilangan joyga borishini iltimos qiladi: “...O'sha yerda...kumush tusga bo'yalgan ustun bor, bilasiz... Bittasining oldida turasiz... Yerto'laga tushadigan zinapoya bor. O'sha zinapoya tizza bo'yi panjara bilan o'ralgan... O'sha panjara yonidagi ustun... Kumush tusga bo'yalgan... Ertaga keladi.... Boring, akajon, qutqaring...”.

Har qanday sentimental adabiyot namunasini o'qimaylik, unda albatta tushkun kayfiyat yetakchilik qiladi. Biz tahlil qilayotgan asarlardan tashqari, Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari”, O'lmas Umarbekovning “Sevgim-sevgilim”, Shukur Xolmirzayevning “Bodom qishda gulladi” asarlarida ham sentimental qahramon ruhiyati talqinini ko'rishimiz mumkin. Bunday asarlarni o'qigan kitobxonda ham ana shunday kayfiyat yuzaga keladi. Darhaqiqat, adabiyotshunoslik lug'atlarida sentimental adabiyot “yig'loqi adabiyot” deb yuritilishi ham bejiz emas.

Xullas, jahon adabiyotshunosligida sentimentalizmga metod sifatida qaralmasa ham, uning badiiy adabiyot taraqqiyotiga qo'shgan hissasi salmoqlidir. Sentimentalizm hayot voqeligini hissiy idrok etishi, inson ichki olamini ifodalashi jihatidan barcha adabiy janrlar doirasida uchraydi. Ushbu adabiy oqim romantizm, realizm, modernizm adabiyotiga doir asarlarda ham, qahramonlarning ichki olamini ko'rsatishda, ularning hissiy tasavvurlarini tasvirlashda o'ziga xos poetik vazifa bajardi.

Adabiyotlar:

U.Jo'raqulov, K.Hamroyev, Qiyosiy adabiyotshunoslik. (O'quv qo'llanma). – T.: “Lesson press” nashriyoti, 2021.

Достоевский Ф.М. Маъсума: Сайланма. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.

Абдуқаюм Йўлдош. Сунбуланинг илк шанбаси. “Ёзувчи” нашриёти, 1998.